
CHEK JALAER FUQAROLARI BILAN UCHRASHUV

Mart oyida "Ishonch" gazetasida e'lon qilingan "Chekkadagilarning chekiga hech narsa tushmaydimi? yohud Chek jalaerda qachon obodlik epkini esadi?" sarlavhali maqola yuzasidan Rishton tumani hokimligi quyidagilarni ma'lum qildi. Shu yilning 25 mart sanasida Rishton tumani Chek-Jalaer MFY da yashovchi fuqarolarning ichimlik suvi, ichki yo'llarni ta'mirlash, elektr ta'minotini yaxshilash va MFY binosini ta'mirlash masalasidagi murojaatlari tuman Xalq qabulxonasi mudiri S.Dodoboev, tuman hokimi o'rinbosari N.Oripov va mutasaddi tashkilot rahbarlari bilan joyiga chiqqan holda fuqarolar bilan uchrashib, ularning murojaatlari o'rganildi hamda mutasaddilarga tegishli ko'rsatma va topshiriqlar berilishi ta'minlandi. Ayni damda ushbu mahallada barcha ishlar tashkil etilmoqda.

2022-06-01 12:34:15